

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**A.Sharafiddinov**

Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) ..... 464

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**N.M.Uluqov, N.Siddiqova**

She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari..... 470

**M.M.Rakhmatova**

Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili ..... 475

**Sh.B.Xo'jayeva**

Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'rtasidagi bog'liqlik ..... 479

**R.R.Mamatov**

Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari ..... 483

**D.M.Uralova**

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni..... 486

**N.A.Saidova**

K.Iyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari..... 489

**K.U.Kubayev**

Tarixiy haqiqat va badiiy talqin ..... 493

**U.Q.Muminova**

"Mahub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati..... 497

**M.Q.Narziqulov**

Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli ..... 502

**M.Abdullayeva**

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi..... 512

**N.Y.Xolmatova**

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari..... 515

**Y.I.Nishanov**

Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari ..... 520

**Sh.K.Xashimova**

Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar..... 523

**Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva**

O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari..... 527

**B.I.Dexqonov**

Binokorlik terminlarinig o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari..... 531

**N.A.Rasulova**

Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash ..... 535

**M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova**

Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida) ..... 540

**G.Xonkeldiyeva**

Rus tilida padej kategoriyasi tavsifi va undagi muammolar..... 543

**X.Abdurahmonov**

O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati..... 546

**N.Y.Ortiqova**

O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi..... 550

**M.M.Abdulxayeva**

Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari..... 556

**N.T.Mutodov**

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kotegoriyalar ..... 560

**Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova**

Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati ..... 567

**M.V.Nasridinov**

Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari..... 570

**G.Yusupova**

Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi ..... 574

## BADIY PUBLISISTIKANING MUHIM XUSUSIYATLARI

## ВАЖНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПУБЛИСТИКИ

## IMPORTANT CHARACTERISTICS OF ARTISTIC PUBLICITY

Xolmatova Nigora Yakubovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Xolmatova Nigora Yakubovna– Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,  
(PhD)**Annotatsiya**

*Adibning adabiy-estetik qarashlarini aniqlashtirish, adibning olam va odamga shaxsiy pozitsiyasini ifoda etgan badiiy ijodi va publisistik janrlarini yonma-yon qo‘yib o‘rganish, ikki xil ijod turida yozuvchining adabiy estetik qarashlarining zuhur topishini aniqlashdan iborat. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, psixologik, struktural, hermenevtik tahlil usullaridan foydalanildi. Yozuvchining adabiy-estetik qarashlari va ijodkor psixologiyasi, yozuvchining estetik ideali masalalari zamonaviy adabiyotshunoslikning ilg‘or yondashuvlari asosida aniqlandi. Erkin A‘zamning adabiy-estetik qarashlarining namoyon bo‘lishi “Ertalabki xayollar” to‘plamiga kirgan maqola, fiqra, xotira, safarnomalari tahlili orqali ochib berilgan. Erkin A‘zam adabiy-estetik qarashlarining shakllanishida oilaviy muhit, adabiy muhit, badiiy-estetik tajriba va an‘ana, ijtimoiy-siyosiy muhit kabi omillar ta‘siri katta bo‘ldi. Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor kabi ustozlar va tengdoshlar ijodi ham katta ijobiy ta‘sir o‘tkazdi. Erkin A‘zam badiiy publisistikaning adabiy maqola, suhbat, xotira, safarnoma, fiqra, adabiy portret kabi janrlarida ijod qildi, adib o‘zining adabiyot, ijod, jamiyat va bashariyat haqidagi o‘ylari, kechinmalari va hissiy mulohazalarini adolat, halollik, to‘g‘rilik mezonlariga to‘la rioya qilgan holda kinoya, piching, kesatliqlar, hayotiy va adabiy misollar tahlili, umuminsoniy g‘oyalar taqini bilan to‘yintirdi.*

**Аннотация**

*Выяснить литературно-эстетические взгляды писателя, изучить рядом литературные произведения и публицистические жанры, выражающие личную позицию писателя к миру и человеку, определить проявление литературно-эстетических взглядов писателя. в двух видах работ. Для уточнения темы исследования использовались аналитический, сравнительно-типологический, сравнительно-исторический, психологический, структурный, герменевтический методы анализа. Вопросы литературно-эстетических воззрений писателя и психологии творца, эстетического идеала писателя определялись на основе передовых подходов современного литературоведения. Проявление литературно-эстетических взглядов Эркина Азама раскрывается посредством анализа его статей, стихов, воспоминаний, рассказов о путешествиях, вошедших в сборник «Утренние сны». Большое влияние на формирование литературно-эстетических взглядов Эркина Азама оказали такие факторы, как семейная среда, литературная среда, художественно-эстетический опыт и традиции, общественно-политическая среда. Творчество учителей и сверстников, таких как Абдулла Каххор, Аскад Мухтар, также оказало большое положительное влияние. Эркин Азам создал литературную публицистику в таких жанрах, как литературная статья, интервью, мемуары, путеводитель, фикра, литературный портрет, насыщенную подачей, нарезками, анализом жизненных и литературных примеров, интерпретацией общечеловеческих идей. Творчество учителей и сверстников, таких как Абдулла Каххор, Аскад Мухтар, также оказало большое положительное влияние. Эркин Азам создал литературную публицистику в таких жанрах, как литературная статья, интервью, мемуары, путеводитель, фикра, литературный портрет, насыщенную подачей, нарезками, анализом жизненных и литературных примеров, интерпретацией общечеловеческих идей.*

**Abstract**

*Find out the literary and aesthetic views of the writer, study a number of literary works and journalistic genres that express the personal position of the writer to the world and man, determine the manifestation of the literary and aesthetic views of the writer. in two types of work. To clarify the research topic, analytical, comparative-typological, comparative-historical, psychological, structural, hermeneutic methods of analysis were used. Questions of literary and aesthetic views of the writer and the psychology of the creator, the aesthetic ideal of the writer were determined on the basis of advanced approaches of modern literary criticism. The manifestation of the literary and aesthetic views of Erkin Azam is revealed through the analysis of his articles, poems, memoirs, travel stories included in the collection "Morning Dreams". A great influence on the formation of the literary and aesthetic views of Erkin Azam was exerted by such factors as the family environment, the literary environment, artistic and aesthetic experience and traditions, and the socio-political environment. The creativity of teachers and peers, such as Abdullah Kahkhor, Askad Mukhtar, also had a great positive impact. Erkin Azam created literary journalism in such genres as a literary article, interview, memoir, guidebook, fikra, literary portrait, rich in presentation, cuts, analysis of life and literary examples, interpretation of universal ideas. The creativity of teachers and peers, such as Abdullah Kahkhor, Askad Mukhtar, also had a great positive impact. Erkin Azam created literary journalism in such genres as a literary article, interview, memoir, guidebook, fikra, literary portrait, rich in presentation, cuts, analysis of life and literary examples, interpretation of universal ideas.*

**Kalit soʻz:** adabiy-estetik qarashlar, publisistika, adabiy muhit, tajriba, ideal, xotira, safarnoma, ijodkor psixologiyasi, oilaviy muhit, qiyosiy-tipologik, psixologik, hermenevtika.

**Ключевые слова:** литературно-эстетические воззрения, публицистика, литературная среда, опыт, идеал, память, путеводитель, творческая психология, семейная среда, сравнительно-типологическая, психологическая, герменевтика.

**Key words:** literary and aesthetic views, journalism, literary environment, experience, ideal, memory, guidebook, creative psychology, family environment, comparative typological, psychological, hermeneutics.

## KIRISH

Globalashuv jarayonida odamlar ongi va tasavvurini umuminsoniy, milliy qadriyatlar asosida shakllanishida yozuvchi badiiy ijodiy konsepsiyasini teran anglash, ulardagi obraz, gʻoya, mavzu, muammo, yechim, yozuvchi idealining shakllanishi haqida qarashlar ilmiy-amaliy mohiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida yozuvchi badiiy-estetik qarashlarining shakllanishi, uning voqelikka realistik, romantik, ironik kabi munosabatini oʻrganish, adabiy-badiiy, ijtimoiy-axloqiy mezonlarni tahlil va tanqid etishdagi fiqra, esse, xotira kabi janrlardan foydalanishiga eʼtibor qaratib kelinadi. Shu bois yozuvchining badiiy publisistik uslubdan faol foydalanishi, uning ijodiy niyati va badiiy mahorati hamda turli asarlar strukturasi tashkillashdagi adabiy-badiiy, ijtimoiy-falsafiy, badiiy psixologik omillarni ochib berish zarurati yuzaga keladi.

Soʻnggi yillarda ijodkorning davr ruhiyati bilan yaqinligini oʻrganishga talab ortmoqda. Shu maʼnoda Oʻzbekiston xalq yozuvchisi, nosir, publisist, dramaturg, kinossenarist Erkin Aʼzamning badiiy va badiiy-publisistik asarlari misolida yozuvchi adabiy-estetik qarashlarini yangicha badiiy-estetik qarashlar kontekstida tadqiq etish, bunda jahon adabiyotshunosligining ilgʻor tadqiqot usullarini qoʻllash, yozuvchi uslubi, yaratgan obrazlarini talqin va tahlil qilish zaruratini tugʻdiradi. Zotan, “Oʻzbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh boʻlishi shart”[1.1] ligi adabiyotshunoslik fani oldiga ham nazariy masalalarni jahon talablari darajasida amalga oshirish vazifasini qoʻyadi. Shunga koʻra, yozuvchining publisistik ijodi bilan nasriy, dramatik ijodini parallel qoʻyib kuzatish, tahlil etish kerak boʻladi. Ayniqsa, yozuvchi adabiy-estetik qarashlarining shakllanishida adib yashab oʻtgan muhit, davr, zamon, ijodiy uslub, liro-romantik kayfiyat va kinoyaviy pozisiya, publisistik janrlar (fiqra, yoʻl safarnomalari, xotira, suhbat)ga xos muammo, tanqidiy mulohaza, talab va taklif, sahna asarida qoʻyilgan ijtimoiy va maʼnaviy-axloqiy muammolarga qarshi kulgining zaharxanda kinoyaviy shakli kabi masalalar bilan bogʻliq ilmiy-nazariy muammolarni tadqiq etishdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Hozirgi oʻzbek adabiyotida esse janri” nomli monografiyasida Marhabo Qoʻchqorova esse janrining hozirgi adabiy jarayondagi oʻrni, ahamiyati haqida misollar yordamida fikrini yoritgan. “Yozuvchi publisistikasining taraqqiyot tamoyillari” nomli monografiyasida Qurbonova publisistika janri, uning turlari, taraqqiyot tamoyillari boʻyicha maʼlumot berilgan. Asosiy mashgʻulotim adabiyot, ammo omadis kinoda chopdi... Erkin Aʼzam bilan Marhabo Qoʻchqorovanning suhbatida yozuvchining kinoqissalari, kino olamining sirlari, adabiyotni qay darajada qadrlashi, munosabati haqida suhbatlashdi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlarini mustaqillik davri misolida tahlil va talqin qiladigan boʻlsak, jurnalist publisistikasi, yozuvchi publisistikasi, ilmiy-hujjatli memuaristikaning turli ichki janrlari rivojini kuzatish mumkin. Ishda 80-90-yillar badiiy publisistikasini biz quyidagicha tasniflab koʻrsatmoqchimiz:

1. Jurnalist publisistikasi (M.Saʼdiy, A.Joʻrayev, A.Meliboyev, O.Toshboy, O.Oʻsarov va boshqalar);

2. Yozuvchi publisistikasi (T.Murod, A.Aʼzam, Oʻ.Hoshimov, E.Aʼzam, X.Sulton, A.Sher, X.Doʻstmuhammad, Sh.Boʻtayev, L.Boʻrixon, I.Sulton, U.Hamdami, Q.Norqobil va boshqalar);

3. Ilmiy hujjatli memuaristika (M.Qoʻshjonov memuar asarlari, “Zamondoshlar xotirasida” turkumida chiqqan nashrlar: “Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida”, “Shukur Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida”, “Nodir Normatov zamondoshlari nigohida”, “Gʻaffor Moʻminov dildoshlari xotirasida”, “Togʻay Murod zamondoshlari xotirasida”, “Oʻzbek adabiyotshunosligining ikki malikasi: Ninel Vladimirova va Mashhura Sultonova zamondoshlari xotirasida”, “Izzat Sulton zamondoshlari xotirasida”, “Begali Qosimov zamondoshlari xotirasida” va h.zo.);

## ADABIYOTSHUNOSLIK

## 4. Ma'rifiy-biografik roman janri (N.Karimov, X.Sulton).

Demak, o'zbek badiiy publisistikasi janrlar, mavzular, mualliflar nuqtai nazaridan takomillashib, mukammallashib boyiganini kuzatishimiz mumkin. Yozuvchi publisistikasining turfa janrlarida yozuvchi-shoirilar, olimlar barakali ijod qilishdi. Mazkur faslda yozuvchi, publisist, dramaturg, kinossenarist E.A'zamning salkam olti yuz sahifalik "Ertalabki xayollar" to'plamiga jamlangan badiiy hamda tanqidiy publisistik ijodini tahlil etamiz. Ammo bu tahlillarimiz shunchaki maqola, suhbat, fiqralarning analitik tahlilidan iborat emas. Balki yozuvchi publisistikasida sochilib yotgan ijodkor shaxsning "men"ni aniqlashga qaratilgan, shuningdek, muallifning hikoya, qissa, kinoqissa, roman janrlari haqidagi nazariy fikrlari, umuman ijodkorning badiiy va tanqidiy publisistikasida mavjud bo'lgan "men"ni yaxlit bir butun holda ko'rsatishdan iborat.

E.A'zamning adabiy qaydlarida yozuvchining hikoya, qissa, drama, san'at, badiiy til, milliy ruh, milliy jonli til, insoniy dard kabi ko'pdan ko'p ilmiy masalalar haqidagi adabiy-estetik qarashlari bo'y ko'rsatadi.

E.A'zamning 1980-yilda yozilgan "Hikoya, hikoya..." nomli maqolasi bor. Unda yozuvchi hikoyaning turlarini ko'rsatib beradi, hozirgi o'zbek adabiyotida yaratilayotgan hikoyalarning ham kamchiliklarini ko'rsatgan, ham nazariy fikrlarini bildiradi: "Hikoyalarimiz ko'pincha jo'n bir voqea, didaktik fikr asosida yoziladi. To'g'ri, hikoyaning turi ko'p: xarakter-hikoya, situatsiya-hikoya, kayfiyat-hikoya, ma'no-fikr uchun yozilgan hikoya... Biroq, har qaysi holda ham u teran hayotiy, haqqoniy bo'lishi shart.

Keyin, ko'pincha voqeaning quruq bayoniga berilib ketiladi. Natijada, situatsiyalar o'xshashligi, takror, siyqalik, sxematizm illatlari yuzaga chiqadi. Mayli, avtorning o'sha damdagi kayfiyati, o'ylari, fikrlari aks etsin. Asar o'shanda o'ziga xos, original bo'ladi, individuallikka erishiladi. Ba'zan hikoyaning san'at asari ekanini unutib, gap aytishga, gazetadagi oddiy tanqidiy xabardagi faktlarni problema qilib ko'tarishga berilib ketamiz. Menimcha, har bir hikoya birinchi galda avtorning o'zi uchun yangilik, oldingilariga o'xshamagan, qalamga olingan xarakter bilanmi, situatsiya bilanmi, yozilishi, kompozitsiyasi bilanmi – ma'lum darajada kashfiyot bo'lishi kerak"[2.220]. Mazkur parchada yozuvchining adabiyotshunos sifatidagi qiyofasi namoyon bo'ladi. U hikoya janri va uni yaratishga bo'lgan talablar haqida so'z yuritar ekan, fikrlarini erkin, ilmiy-publisistik uslubda ravon ifodalaydi. Erkin A'zam badiiy adabiyot, adabiy jarayon, janrlar tabiati haqida so'z yuritar ekan, o'z ilmiy-nazariy qarashlarini aniq keltiradi.

E.A'zamning adabiy-nazariy muammolarga bag'ishlangan maqolalaridan tashqari, uning chet mamlakatlarga qilgan sayohatlari natijasida yaratilgan bir qancha "safarnoma" maqolalari ham bor. Yozuvchi xorijga qilgan sayohatlari haqidagi maqolalarining janrini "safarnoma" deb ataydi. Demak, u yozuvchi publisistikasi janrlari nomlanishiga ham ma'lum ma'noda yangilik kiritdi. To'g'ri, mumtoz o'zbek adabiyotida Muqimiyning mashhur "Sayohatnoma"lari bor. Umuman, o'zbek adabiyotida sayohatnoma janri qadimiy va uzoq genezisga ega bo'lgan janr. E.A'zam o'zbek adabiyotida mavjud bo'lgan janr imkoniyatlaridan foydalanib, unga publisistik pafos, ruh beradi. Jumladan, adibning "Tehronda qo'rquv yo'q..." (Eron taassurotlari asosida), "Okean ortidagi tabassum" (Amerika taassurotlari asosida), "Reyn bo'yidagi uchrashuvlar" (Germaniya taassurotlari asosida yozilgan) safarnomalari bor. Muallif "Kulgidan yig'i chinroq" maqolasida shunday yozadi: "Men vatanni Vatanda emas, chet ellarga chiqqanda yaqqolroq his qilaman: xuddi jonday bir narsamni yo'qotgandek bezovta bo'laveraman. Shunday narsaki, usiz hayot-hayot emas, omonat bir ro'zguzaronlik. Vatani degani shu bo'lsa kerak.

Vatanni men qachon bor bo'yi bilan his qildim?"[2.20] Yozuvchi Vatani tushunchasi va uning shaxs tomonidan anglanishi uchun hijron qanchalik kerakligini ta'kidlaydi. O'zi vatani tuyg'usini anglashi, qadriga yetishi uchun qalbidan o'tgan kechinma va xayolidagi mulohazalarini bayon etadi. Bu ijtimoiy-falsafiy va badiiy publisistik yo'sinda bo'lsa-da, o'quvchiga tez va oson yetib boradi.

E.A'zamning badiiy publisistikasida milliy an'ana va qadriyatlar, farzand burchi, Vatanga sadoqat, tarixni xolis baholash, Sharq va G'arb madaniyati, adabiy qarashlari, tafakkur dunyosi haqidagi qator mazmundor maqolalar kompozitsiyasining asosini tashkil etgan kolliziya bir-biriga zid ijobiy va salbiy faktlar to'qnashuvi va bunga yozuvchining munosabati orqali namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, badiiy asarda, avvalo, muallifning o'zi mansub bo'lgan xalqning, qolaversa, butun insoniyatning yetuk badiiy-estetik ideali ifoda etiladi. Shu ma'noda O'zbekiston xalq yozuvchisi

Erkin A'zamning badiiy asarlarida zamonaviy qahramon ruhiyati, tafakkur tarzi, turmushi tasvirlanadi. Ularda xalq dardi, orzu-havasi, kishilarning intilishi, jamiyatdagi turli voqelik badiiy-estetik yoki badiiy-publisistik jihatdan baholanadi. Bu esa yozuvchi adabiy-estetik dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi. Zero, "Tizimli aniqlanib boriladigan badiiyat badiiy so'z san'atining estetikasi bo'lishi kerak"[3.10]. Shu bois Erkin A'zam ijodini tizimli tadqiq etish orqali uning so'z san'ati estetikasiga bo'lgan munosabatini teran anglash mumkin.

Adib shu kunga qadar o'ndan ziyod badiiy to'plamlarini keng adabiy jamoatchilikka taqdim etdi. U o'zbek nasrining roman, qissa, kinoqissa, hikoya janrlarida va dramatik turda barakali ijod qildi. Shu bilan birga, yozuvchi badiiy publisistikaning maqola, safarnoma, fiqra, adabiy qaydlar, adabiy portret, xotira, suhbat janrlarida ham qalam tebratdi.

E.A'zamning adabiy-estetik qarashlarining shakllanishida milliy adabiyotimizning katta avlod ijodkorlarining badiiy estetik tajribalari asos bo'ldi. Shu bilan birga jahon adabiyotining yirik yozuvchilari A.Nesin, Ch.Aytmatov, o'z zamondoshlaridan Murod Muhammad Do'st ijodiga xos yangicha uslub va yozuvchi estetik ideallarining yangiligi E.A'zamni o'ziga jalb qildi. E.A'zamning ikki ulug' ustozlari A.Qahhor va A.Muxtor hayoti va ijodi, adabiy shaxsiyati Erkin A'zam adabiy-estetik dunyoqarashining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgani mazkur faslda o'rganildi.

XX asrning 70-yillariga kelib, vulgar sotsiologik talablar o'zini oqlay olmay qolgan ayon bo'la boshladi. Chunki sotsialistik realizm ijodiy metodi talabi bilan yaratilgan badiiy qahramonlar va syujetlar quruq sxematik qolip, jonli xalq hayotidan ancha uzoq sun'iy mafkuraviy adabiyot ekanligi sezilib qoldi. Endi voqelik va badiiy qahramonlarni ham yangilash kerak edi. Hatto, an'anaga aylangan realizm imkoniyatlarini ham o'zgartirish zaruriyati maydonga keldi. Ana shunday vaziyatda 70-yillarning adabiy avlodi o'zbek adabiyotiga yangi nafas olib kirdi. Xususan, Murod Muhammad Do'st, T.Murod, E.A'zam, X.Sultonga o'xshagan iste'dodli yozuvchilar o'zlarining yangicha uslubiy izlanishlarini namoyon qilib, yangi asarlarini taqdim etishdi. Masalan, E.A'zam "Chiroqlar o'chmagan kecha" nomli to'plamiga kirgan to'rtta hikoyasida o'zigacha yaratilgan o'zbek nasridagi obrazlardan tamomila farq qiladigan yangi tipdagi o'ziga xos badiiy obrazlarni yaratdi.

Darhaqiqat, tadqiqotchilar e'tirof etganidek, 70-yillar adabiy avlodi o'zbek adabiyotida estetik ideallarni ham yangilab berdi. Deylik, A.Qodiriyning ideal qahramonlari Otabek, Kumush, Yusufbek Hoji, Oftob Oyim, Mirzakarim qutidor, Anvar, Ra'no kabi obrazlarni 70-yillar adabiy avlodi yaratgan nasr namunalari uchratmaymiz. 70-yillar adabiy avlodi hayotda mukammal yaralgan ideal insonning o'zi yo'qligini tushunib yetdi. Darhaqiqat, Ollohgina mukammaldir. Bandasi esa doim noqis, gunohkor, xatokordir. Islom ta'limotiga ko'ra, bandaga Muhammad (s.a.v) payg'ambargina komil inson sifatida namuna qilib ko'rsatiladi. Endi 70-yillar adabiy avlodi oyog'i yerdan uzilgan adabiyotning nuqsonlarini anglab yetgani uchun ham o'z asarlarida o'zi mukammal bo'lmagan holda, mukammal bo'lishga, nomukammal jamiyatda yashayotgan qahramonning mukammalroq manzil makon izlashi ideal darajasiga chiqdi. Shu ma'noda, E.A'zam nasriga nazar tashlasak, uning estetik ideali oydinlashadi. Ya'ni o'zidan o'zi norozi, o'tgan umridan norozi, yashayotgan joyidan va mavqeidan ko'ngli to'lmayotgan badiiy qahramonlar estetik ideal sifatida yaratilganini anglash mumkin. Masalan, 80-yillarda yaratilgan Asqar Shodiyev obrazi ("Otoyining tug'ilgan yili" qissasi) jamiyatdagi adolatsizlikka, ta'lim tizimidagi jo'nlikka qarshi turadi. Zabarjad ("Zabarjad" kinoqissa) obrazi esa ilmiy tekshirish institutdagi ma'naviy-axloqiy tubanlikka qarshi bosh ko'taradi. U ayol kishi bo'lishiga qaramasdan, hayotda mustaqil o'zi oyoqqa tura oladi. U tabiatan o'jar, qaysar qiz. Shu bilan birga Zabarjad ham Asqar Shodiyev kabi isyonkor. Demak, yozuvchi idealidagi isyonkorlik tuyg'usi muhim estetik pozisiya ekanligini anglash mumkin.

E.A'zam nasrida zaharxanda kulgi estetik ideal sifatida ko'zga tashlanadi. Zaharxanda kulgi satirik va yumoristik kulgidan farqlanadi. Yumoristik kulgida jamiyatdagi salbiy holat ustidan yengil kulgi qilinadi. Ijodkor satirik kulgi vositasi bilan jamiyatdagi salbiy illat batamom yo'q bo'lishini istaydi. Kinoyaning zaharxanda kulgi vositasi bilan ijodkor jamiyatdagi salbiy hodisalarga sarkazm bilan nazar tashlaydi va yozuvchi kitobxonda yaqin o'tmishdagi xatolar va kamchiliklarga tanqidiy va tahliliy yondashuv va ongli tafakkurini o'stirishga hissa qo'shadi.

#### XULOSA

Erkin A'zam adabiy-estetik qarashlarining shakllanishida oilaviy muhit, ustoz ijodkorlar, adabiy muhit, badiiy-estetik tajriba va an'ana, ijtimoiy-siyosiy muhit kabi omillar ta'sirida shakllandi. Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor kabi ustozlar va tengdoshlar ijodi ham katta ijobiy ta'sir o'tkazdi. Erkin A'zam adabiy avlodi o'zbek nasri va badiiy hamda tanqidiy publisistikasiga o'zining jamiyat va

## ADABIYOTSHUNOSLIK

zamondoshlari hayotiga kinoya, sarkazm, zaharxanda kulgisi, polifonik tasviri, ramziy kinoyaviy badiiy shartli vositalari bilan, "o'zini o'zi taftish etayotgan", "o'zini o'zi anglayotgan", "isyonkor" va "shartaki" xarakterdagi obrazlari bilan adabiyotni yangilab berdi. Erkin A'zam badiiy publisistikaning adabiy maqola, suhbat, xotira, safarnoma, fiqra, adabiy portret kabi janrlarida ijod qildi, adib o'zining adabiyot, ijod, jamiyat va bashariyat haqidagi o'ylari, kechinmalari va hissiy mulohazalarini adolat, halollik, to'g'rilik mezonlariga to'la rioya qilgan holda kinoya, piching, kesatiqlar, hayotiy va adabiy misollar tahlili, umuminsoniy g'oyalar talqini bilan to'yintirdi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабридаги Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2017, 22 декабрь. - №258 (6952).
2. Аъзам Э. Ҳикоя, ҳикоя... / Эрталабки хаёллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 220.
3. Қо'чқорова М.Х. Ҳозирги ўзбек адабиётida esse жанри: филол. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 2004. – 134 b
4. Kurbonova S. Yozuvchi publisistikasining taraqqiyot tamoyillari. - Toshkent: Muharrir, 2012, - 128 b
5. Vladimirova N. Novellachilikdagi izlanishlar // O'zbek tili va adabiyoti. 1988. №6. –B. 13-16; 6.Normatov U. Yangi asr odamlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2009. 29 may
7. Solijonov Y. Tushunishning o'zi baxt // O'zAS-2004 yil 26 yanvar.
8. Jabborov N. Hayot bulog'idan bahramand ijod // Xalq so'zi. 2009. 29 may; Rizayev Sh. Murosali umr hikoyati// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2010. 15 yanvar
9. Sattorova G. Ruhiyat suvratlari talqini // Ishonch. 2009. 28 may
10. Qo'chqorova M. "Shovqin"ning shov-shuvlari // Yoshlik. 2013. №1. 44-45-betlar
11. Qo'chqorova M. Asosiy mashg'ulotim adabiyot, ammo omadim kinoda chopdi... Erkin A'zam bilan suhbat // Sharq yulduzi. 2014. №1. –B. 158-162